



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyojonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	



O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH

Kurbanova Nigora Abduraxmanovna

TDTU magistranti

E-mail: nigoraabdurahmanovna@gmail.com

Annotatsiya. Bug'doy O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligining strategik mahsuloti hisoblanadi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil g'alla hosili o'rtachadan yuqori darajada — 8,9 million tonna deb baholangan [1]. Shunga qaramay, mamlakat yillik talabning taxminan 22 foizini Qozog'istondan import qilmoqda [2]. Maqolada sektordagi asosiy risklar — iqlim, suv ta'minoti, tuproq sho'rlanishi, narx beqarorligi, importga bog'liqlik hamda agrobiotik xavflar — tizimli tahlil qilinib, ISO 31000 va COSO ERM asosida uch bosqichli risk-boshqaruv strategiyasi taklif etiladi. Tahlil Scopus manbalari, FAO GIEWS, Jahon banki, USDA FAS hamda O'zbekiston Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga tayanadi.

Kalit so'zlar: bug'doy, oziq-ovqat xavfsizligi, agrar risk, qurg'oqchilik, tuproq sho'rlanishi, ISO 31000, COSO ERM, O'zbekiston, klaster, bug'doy importi.

Abstract. Wheat is a strategic commodity for food security in Uzbekistan. According to FAO, the 2025 grain harvest is estimated to be above average at 8.9 million tons [1]. Nevertheless, the country imports approximately 22% of its annual demand from Kazakhstan [2]. The article provides a systemic analysis of key sectoral risks — including climate, water availability, soil salinity, price volatility, import dependency, and agrobiological threats — and proposes a three-stage risk management strategy based on ISO 31000 and COSO ERM. The analysis relies on data from Scopus, FAO GIEWS, World Bank, USDA FAS, and the State Statistics Committee of Uzbekistan.

Key words: wheat, food security, agricultural risk, drought, soil salinity, ISO 31000, COSO ERM, Uzbekistan, cluster, wheat imports.

Аннотация. Пшеница является стратегическим продуктом продовольственной безопасности Узбекистана. По данным FAO, урожай зерновых в 2025 году оценивается выше среднего уровня — 8,9 млн тонн [1]. Несмотря на это, страна импортирует около 22% годовой потребности из Казахстан [2]. В статье проведён системный анализ основных рисков сектора — климатических, водных, засоления почв, ценовой нестабильности, импортозависимости и агrobiотических угроз — и предложена трёхуровневая стратегия управления рисками на основе ISO 31000 и COSO ERM. Анализ основан на данных Scopus, FAO GIEWS, World Bank, USDA FAS и Статистического комитета Узбекистана.

Ключевые слова: пшеница, продовольственная безопасность, аграрный риск, засуха, засоление почв, ISO 31000, COSO ERM, Узбекистан, кластер, импорт пшеницы.

KIRISH

Bug'doy — O'zbekiston aholisi rasionining asosi va davlatning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng muhim strategik mahsulotidir. Mustaqillik yillarida olib borilgan g'alla siyosati natijasida bug'doy ekin maydoni 1991-yildagi 0,63 mln gektardan 2019-yilga kelib 1,31 mln gektarga kengaydi, o'rtacha hosildorlik esa 4,6 t/ga atrofida barqarorlashdi [3]. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil g'alla hosili 8,9 mln tonna, jumladan 7,3 mln tonna bug'doy va taxminan 900 ming tonna makkani tashkil etdi [1].



Shu bilan birga, sektor bir qator tizimli omillar ta'sirida rivojlanmoqda. Birinchidan, O'рта Osiyo iqlim o'zgarishidan sezilarli ta'sirlanayotgan mintaqalardan biri bo'lib, tadqiqotlar 2050-yilga qadar bug'doy hosildorligi 13–32% gacha pasayishi mumkinligini ko'rsatadi [8; 27]. Ikkinchidan, mamlakat sug'orma dehqonchilikka tayanadi — jami suv olishning 90%i shu sohaga to'g'ri keladi, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida esa suv kamayish tendensiyasi qayd etilgan [11; 12]. Uchinchidan, 2020-yildagi PQ-4634-son qaror bilan boshlangan va 2022-yilda yakunlangan davlat buyurtmasi hamda narx nazoratining bekor qilinishi fermerlarni yangi bozor sharoitlariga moslashish bosqichiga olib keldi [16].

Tizimli risk-menejment yondashuvi qo'llanilmagan holatda yuqoridagi omillar klaster va xususiy fermer xo'jaliklari foyda marjasini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin. ICARDA hisob-kitoblariga ko'ra, xususiy fermalar uchun bug'doy ishlab chiqarishning yalpi marjasi taxminan 273 USD/ga ni tashkil etadi [3]. Shu sababli, ISO 31000 [18] va COSO ERM [19] ramkalariga moslashtirilgan ilmiy asoslangan risk-boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agrar risk boshqaruvi bo'yicha xalqaro adabiyot ikki yo'nalishda rivojlangan: iqtisodiy-nazariy [21; 20], unda risk foyda funksiyasi va xo'jalik xulq-atvori modellari orqali o'rganiladi, hamda institutsional-siyosiy [22], unda davlat buyurtmasi, narx nazorati hamda sug'urtaning riskni qayta taqsimlashdagi roli tahlil qilinadi. O'zbekiston bug'doychiligi bo'yicha maxsus adabiyot esa shakllanish bosqichida: Yigezu va Bishaw [3] 1942–2019-yillarda 184 ta bug'doy navi ro'yxatga olinganini, ularning 50%i mahalliy genetik resurslardan kelib chiqqanini ko'rsatsa, Khalikulov va boshq. [25] mamlakat don ehtiyojining taxminan 20%ini import hisobiga qoplanishini ta'kidlaydi.

Iqlim risklari sohasida Sutton va boshq. [8] Jahon banki tahlilida 2050-yilga qadar G'arbiy O'zbekiston cho'l mintaqasida qishki bug'doy hosildorligi 13–32%ga, paxta hosildorligi esa 19–31%ga pasayishi mumkinligini hisoblab chiqqan. Bobojonov va boshq. [7] iqlim va tuproq sho'rlanishining birgalikdagi ta'sirini hisobga olib, SSP3-RCP4.5 ssenariysida XXI asr oxiriga kelib jiddiy bug'doy talab–taklif tafovuti yuzaga kelishini prognoz qilgan. Abdullaev va boshq. [13] hamda Bekchanov & Lamers [10] qurg'oqchilikdan ko'riladigan zarar 2050-yilga qadar 5 mlrd AQSh dollariga (YalMning taxminan 3%iga) yetishi mumkinligini ko'rsatadi.

Institutsional yo'nalishda Jahon banki [15; 16] narx liberalizatsiyasi 2018–2022-yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilganini, biroq mintaqaviy bozorlar o'rtasidagi narx integratsiyasi hanuzgacha zaifligini qayd etadi. Human Rights Watch [17] esa rasmiy darajada davlat buyurtmasi bekor qilinganiga qaramay, mahalliy boshqaruv darajasida fermerlarni klasterlar orqali sotishga yo'naltiruvchi norasmiy mexanizmlar saqlanib qolayotganini ta'kidlaydi.

Mavjud adabiyotlarda risklar ko'pincha alohida (iqlim, siyosat yoki seleksiya nuqtayi nazaridan) o'rganilgan; ISO 31000 va COSO ERM doirasida integratsiyalashgan tahlil deyarli uchramaydi. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston bug'doychilik sanoatining asosiy risklarini tizimlashtirish, ularning miqdoriy ko'lamini baholash va xalqaro standartlar asosida boshqaruv strategiyasini taklif etishdan iborat. Tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlarga asoslangan sifat-miqdor aralash dizayn (mixed-methods secondary data analysis)dan foydalanadi.

Ma'lumot manbalari quyidagi darajalar bo'yicha tanlangan: (1) Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalarida indekslangan ilmiy ishlar; (2) xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari (FAO GIEWS Country Brief Uzbekistan, Jahon banki, USDA FAS, UNEP, IFPRI, ICARDA); (3) O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi va Qishloq xo'jaligi vazirligining ochiq ma'lumotlari. Davriy chegara: 2013–2025-yillar; istisno tariqasida tarixiy uzilishlarni ko'rsatish uchun 1991-yildan boshlangan vaqt qatorlari ishlatilgan.

Tahlil usullari: tarkibiy adabiyot tahlili (PRISMA), risklarning ehtimollik \times ta'sir matritsasi (ISO 31000:2018 metodologiyasiga asoslanib) hamda hujjatlardan miqdoriy ko'rsatkichlarni triangulyatsiya qilish. Statistik ko'rsatkichlar bir nechta mustaqil manbalardan kross-tekshiruvdan o'tkazilgan; nomuvofiqlik holatida xalqaro tashkilotlarning eng so'nggi rasmiy ma'lumotlariga ustunlik berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil O'zbekiston don ishlab chiqarish tarmog'ida ikki yo'nalishli dinamikani ko'rsatadi: bir tomondan, hosildorlik va ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib, so'nggi yillarda o'rtachadan yuqori darajalarga yetdi [1; 5]; ikkinchi tomondan, importga bog'liqlik [2], suv tanqisligi [11; 12] va kichik fermer xo'jaliklarida foyda marjasining pastligi [3] kabi tuzilmaviy zaifliklar saqlanib qolmoqda (1-jadval).



1-jadval. O'zbekiston bug'doychilik sanoatining asosiy ko'rsatkichlari (Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Ko'rsatkich	Qiymati	Yili	Manba
Bug'doy ekin maydoni	≈ 1,31 mln ga (82% sug'orma)	2019	[3]
Yalpi g'alla yetishtirish (jami)	8,9 mln tonna	2025	[1]
Shu jumladan: bug'doy	7,3 mln tonna	2025	[1]
Shu jumladan: makka	≈ 900 ming tonna	2025	[1]
O'rtacha hosildorlik	≈ 4,6–5,1 t/ga	2018–2024	[3]; FAOSTAT
Bug'doy iste'moli	≈ 8,5 mln tonna	2022/23	[4]
Import (don + un, ekvivalentda)	≈ 3,5 mln tonna (talabning ~22%)	2024/25	[2]
Asosiy import manbai	Qozog'iston (≥85%)	2024/25	[2]
Yetakchi viloyatlar (2025 H1)	Farg'ona 709,4 ming t; Surxondaryo 674,3 ming t; Qashqadaryo 600,1 ming t	2025-yil yanv– iyun	[5]
Xususiy fermalar yalpi marjasi	≈ 273 USD/ga	2017	[3]
Qishloq xo'jaligining YalMdagi ulushi	≈ 19%	2024	[6]

Don ishlab chiqarish tarmog'idagi risklarning klassifikatsiyasi. ISO 31000:2018 [18] va Hardaker va boshq. [20] tipologiyasiga asoslanib, sektordagi risklar oltita kategoriyaga ajratiladi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston bug'doy sektoridagi risklar tipologiyasi (Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Risk turi	Tavsifi va miqdoriy ko'rsatkichi	Manba
Iqlimiy va meteorologik	2050-yilga qadar qishki bug'doy hosildorligi 13–32% ga pasayishi prognozi; 1°C o'rtacha haroratning ortishi bilan hosildorlik 60% gacha pasayishi mumkin (eng yomon stsensariyda)	[8; 13]
Suv tanqisligi va gidrologik	Sug'orma yerlar suv olishning 90% ini iste'mol qiladi; juda issiq va qurg'oq yillarda Amudaryo–Sirdaryo oqimi 25–50% ga kamayishi mumkin	[12; 11]
Tuproq sho'rlanishi va degradatsiya	Sug'orma yerlarning katta qismi sho'rlangan; pasture mahsuldorligining 60% i pasaymoqda	[12; 10]
Bozor va narx	Narxlarning 2018–2022-yillardagi liberalizatsiyadan keyin volatilligi oshdi; mintaqaviy narx integratsiyasi zaif (yarim umr 2,3 oy)	[15; 16]
Importga bog'liqlik va geosiyosiy	Yillik talabning 22% i Qozog'istondan import qilinadi; Qozog'istonning vaqti-vaqti bilan eksport cheklovi to'g'ridan-to'g'ri xavf yaratadi	[1; 2]
Institutsional / siyosiy	Davlat buyurtmasi rasman 2020-yilda bekor qilingan, ammo majburiy klaster sotishlar va hokimiyat darajasidagi nazorat saqlanmoqda	[17; 6]
Agronomik va biotik	Zang kasalliklari (poya zangi, sariq zang), zararkunandalar; landrace navlardan keng foydalanish – ham resurs, ham zaiflik	[26]

Iqlimiy risk va qurg'oqchilik. O'zbekiston jahonda eng qurg'oqchilikka moyil 20 davlatdan biri hisoblanadi [12]. 2024-yil oktabr–noyabr oylarida asosiy g'alla mintaqalarida yog'ingarchilik o'rtachadan 20%ga kam bo'lib, bu 2025-yilgi qishki bug'doy hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi [1]. Asseng va boshq. [9] ma'lumotlariga ko'ra, gullash davrida haroratning 1°Cga ko'tarilishi hosildorlikni 20%gacha kamaytirishi mumkin; Drought Stress Index 95p ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston eng yuqori xavfli (≥0,70) o'nlik davlatlar qatoriga kiradi.

Suv tanqisligi. Qishloq xo'jaligi suv olishning 90%ini tashkil etadi [11], so'nggi o'n yilliklarda esa suv kamayishi tufayli ekin mahsuldorligi pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda [10; 12]. 2025-yilda Jahon banki sug'orish-drenaj infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun 5 ta viloyatni qamrab oluvchi 200 mln AQSh dollarlik imtiyozli qarzni tasdiqladi [6]. O'zbekiston suv mahsuldorligi bo'yicha jahonda eng past 20 talikda: 1 m³ suvga 0,6 USD (jahon o'rtachasi 15 USD/m³) [6].



Tuproq sho'rlanishi. Bobojonov va boshq. [7] iqlim va sho'rlanish ta'sirini birgalikda baholaydigan prognoz modelini taklif etgan: SSP3-RCP4.5 ssenariysida XXI asr oxiriga kelib jiddiy talab–taklif tafovuti yuzaga keladi. UNEP [12] ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat yaylovlarning 60%i mahsuldorlik pasayishini boshdan kechirmoqda.

Bozor va narx risklari. PQ-4634-son qaror (06.03.2020) bilan davlat buyurtmasi va narx nazorati bekor qilinib, 2018-yilda non, 2019-yilda un, 2022-yilda bug'doy narxlariga to'liq liberallashtirildi [16]. Zorya va boshq. [15] hisob-kitoblariga ko'ra, narx shokidan so'ng mintaqaviy bug'doy narxining muvozanatga qaytishi 2,3 oy, un uchun esa 2,2 oy davom etadi — bu fermerlarning mavsumiy aylanma kapitaliga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Importga bog'liqlik va geosiyosiy risk. 2024/25 marketing yilida bug'doy va un importi taxminan 3,5 mln tonnani tashkil etdi; un importi so'nggi o'n yilda 70%ga oshgan [2]. Asosiy yetkazib beruvchi — Qozog'iston — tomonidan vaqti-vaqti bilan eksport cheklavlari joriy etilishi yetkazib berish zanjirida muayyan noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Institutsional risk. Human Rights Watch [17] hisobotiga ko'ra, 2023–2025-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar asosida, davlat buyurtmasi rasman bekor qilinganiga qaramay, mahalliy darajada fermerlarni ma'lum klasterlar orqali mahsulot sotishga yo'naltiruvchi mexanizmlar saqlanib qolmoqda (masalan, Yakkabog' tumanida bitta paxta va bitta g'alla klasteri mavjud). Bu holat fermer xo'jaliklarining narx va mijoz tanlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Tahlil qilingan risklar tizimli xarakterga ega bo'lib, fermer darajasida yakka tartibda to'liq bartaraf etilishi qiyin. ISO 31000:2018 [18] va COSO ERM [19] ramkalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirgan holda quyidagi uch bosqichli strategiya taklif etiladi.

Mikro bosqich (fermer/klaster): qurg'oqchilikka chidamli navlarni (ICARDA hamkorligida [3]) joriy etish, tomchilatib sug'orish (2022-yildan subsidiyalanadi), ekin almashlab ekish (paxta–bug'doy–dukkakli o'simliklar) va aniq dehqonchilik elementlarini qo'llash.

Mezo bosqich (bozor va moliyaviy vositalar): ob-havo indeksi sug'urtasi [24] (uning samaradorligi tasdiqlangan), kredit bilan bog'langan sug'urta paketlari, fyuchers va forvard shartnomalari uchun mintaqaviy don birjasini rivojlantirish hamda davlat strategik zaxiralarning shaffof boshqaruvi [16].

Makro bosqich (davlat siyosati va institutsional ramka): davlat buyurtmasining amalda saqlanib qolgan elementlarini bartaraf etish [17], milliy qurg'oqchilikni boshqarish rejasini ishlab chiqish va joriy etish [13], milliy AKIS markazlarini moliyalashtirish [3], import manbalarini diversifikatsiyalash (Qozog'istondan tashqari Rossiya va Pokiston yo'nalishlari) hamda JST (WTO) talablariga mos eksport-import siyosatini shakllantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi.

Birinchi, O'zbekiston bug'doychilik sanoati ishlab chiqarish hajmi bo'yicha mustahkamlanib, 2025-yilda 7,3 mln tonna bug'doy va 8,9 mln tonna jami g'alla ko'rsatkichlariga erishgan bo'lsa-da [1], tizimli risklar — ayniqsa iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi — uzoq muddatli barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sutton va boshq. [8] prognoz qilgan 13–32%lik hosildorlik pasayishi mahalliy lashtirilgan adaptatsiya choralarisiz yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchi, 2018–2022-yillardagi narx liberalizatsiyasi sektor uchun strategik jihatdan muhim qadam bo'lgan, biroq u yangi turdagi tranzitsion risklarni yuzaga keltirdi: narx volatilligi, mintaqaviy bozorlarning zaif integratsiyasi va de-fakto klaster aloqalarining saqlanib qolishi [15; 17]. Ushbu masalalar institutsional va makro darajada hal etilmaguncha, mikro darajadagi texnik yechimlar to'liq samaradorlikni ta'minlamaydi.

Uchinchi, taklif etilayotgan uch bosqichli risk-menejment strategiyasi (mikro — mezo — makro) ISO 31000:2018 [18] va COSO ERM [19] standartlariga muvofiq bo'lib, O'zbekiston bug'doy sektorining uzoq muddatli iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligi maqsadlariga xizmat qiladi. Strategiyaning samarali amalga oshirilishi uchun ferma darajasidagi sifatli ma'lumotlar bazasini shakllantirish, davlat buyurtmasi qoldiqlarini bartaraf etish va mintaqaviy don bozorini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot cheklavlari: tahlil ikkilamchi ma'lumotlarga asoslanadi; ferma darajasidagi birlamchi tadqiqotlar (panel ma'lumotlar) keyingi bosqichda ushbu xulosalarni yanada mustahkamlash va miqdoriy modellashni rivojlantirish uchun zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. FAO (2025). GIEWS Country Brief: The Republic of Uzbekistan. Available at: <https://www.fao.org/giews/countrybrief/country/UZB/pdf/UZB.pdf>
2. FAO (2025). GIEWS Country Brief: Uzbekistan — Wheat Import Requirements and Trade Flows, Marketing Year 2024/25. Rome: FAO.
3. Yigezu, Y. A., & Bishaw, Z. (Eds.). (2022). Wheat Sector in Uzbekistan: Seed Systems, Varietal Adoption, and Implications. Beirut: International Center for Agricultural Research in the Dry Areas (ICARDA).



4. USDA Foreign Agricultural Service (2023). Uzbekistan: Grain and Feed Annual (GAIN Report). Washington, D.C.: USDA FAS.
5. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2025). Agricultural Production Indicators, January–June 2025. Tashkent: SSCU.
6. U.S. International Trade Administration (2025). Uzbekistan — Agricultural Sectors. Country Commercial Guide. Washington, D.C.: Trade.gov.
7. Bobojonov, I., Berg, E., Djanibekov, N., et al. (2024). Can domestic wheat farming meet the climate change-induced challenges of national food security in Uzbekistan? *Water International*, 49(7–8), 945–966. <https://doi.org/10.1080/07900627.2023.2290523>
8. Sutton, W. R., Srivastava, J. P., Neumann, J. E., et al. (2013). Reducing the Vulnerability of Uzbekistan's Agricultural Systems to Climate Change. Washington, D.C.: World Bank.
9. Asseng, S., Ewert, F., Martre, P., et al. (2015). Rising temperatures reduce global wheat production. *Nature Climate Change*, 5(2), 143–147. <https://doi.org/10.1038/nclimate2470>
10. Bekchanov, M., & Lamers, J. P. A. (2016). The effect of energy constraints on water allocation decisions: The elaboration and application of a system-wide economic-water-energy model (SEWEM). *Water*, 8(6), 253. <https://doi.org/10.3390/w8060253>
11. Frenken, K. (2013). Irrigation in Central Asia in Figures: AQUASTAT Survey 2012. FAO Water Reports No. 39. Rome: FAO.
12. United Nations Environment Programme (2025). Atlas of Environmental Change for Uzbekistan. Nairobi: UNEP.
13. Abdullaev, I., Gafurov, Z., & Kenjabaev, Sh. (2024). Water Resources Management and Planning under Climate Uncertainty: Assessment of the Droughts in Uzbekistan. CGIAR Working Paper. International Water Management Institute (IWMI). Available at: <https://cgspace.cgiar.org>
14. Zorya, S., von Cramon-Taubadel, S., Mu, Y., & Barrantes, C. (2020). Study of Wheat and Flour Market Integration in Uzbekistan. Washington, D.C.: World Bank.
15. World Bank (2022). Uzbekistan: Review of Agriculture Strategy Implementation in 2020 and 2021. Washington, D.C.
16. Human Rights Watch (2026). "Farmers Have No Freedom": Abuse and Exploitation of Cotton and Wheat Farmers in Uzbekistan. New York: HRW.
17. International Organization for Standardization (2018). ISO 31000:2018 Risk Management — Guidelines. Geneva.
18. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (2017). Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance.
19. Hardaker, J. B., Lien, G., Anderson, J. R., & Huirne, R. B. M. (2015). Coping with Risk in Agriculture: Applied Decision Analysis (3rd ed.). Wallingford, UK: CABI.
20. Knight, F. H. (1921). Risk, Uncertainty and Profit. Boston: Houghton Mifflin.
21. Just, R. E., & Pope, R. D. (Eds.). (2013). A Comprehensive Assessment of the Role of Risk in U.S. Agriculture. Berlin: Springer.
22. OECD (2009). Managing Risk in Agriculture: A Holistic Approach. Paris: OECD Publishing.
23. Khalikulov, Z., Sharma, R. C., Amanov, A., et al. (2016). Wheat production and research in Uzbekistan: Constraints and opportunities. In: Proceedings of the International Wheat Conference, Sydney.
24. Morgounov, A., Gómez-Becerra, H. F., Abugalieva, A., et al. (2007). Iron and zinc grain density in common wheat grown in Central Asia. *Euphytica*, 155(1–2), 193–203. <https://doi.org/10.1007/s10681-006-9321-2>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
